



2021- yilning yanvar-sentabr oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida jami **3108,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **132,4 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **406,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **200,7 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,3 %** punktga ko'paydi va **13,1 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



O'SISH SUR'ATI **200,7 %**

2020- yil
yanvar-sentabr


2021- yil
yanvar-sentabr

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **59,9 %** yoki 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **280,6 %**), Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,0 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **299,2 %**) va Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,8 %**, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **76,6 %**) ga to'g'ri keldi.




**Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona
va mikrofirmalar ulushi**

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **48,3 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **6,3 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **118,8 %** ni tashkil etgan holda **1500,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **38,6 %** ni tashkil etdi yoki **1201,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish **136,2 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **143,5** mlrd. so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2964,7** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,6 %** va **95,4 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	3108,2	143,5	4,6	2964,7	95,4
Urganch sh.	749,4	51,6	6,9	697,8	93,1
Xiva sh.	163,0	10,0	6,1	153,0	93,9
tumanlar:					
Bog'ot	200,7	8,4	4,2	192,3	95,8
Gurlan	174,4	0,1	0,1	174,3	99,9
Qo'shko'pir	207,4	8,3	4	199,1	96,0
Urganch	279,8	14,1	5	265,7	95,0
Hazorasp	166,0	10,1	6,1	155,9	93,9
Tuproqqal'a	105,8	8,7	8,2	97,1	91,8
Xonqa	239,0	6,6	2,8	232,4	97,2
Xiva	303,4	0,0	0	303,4	100,0
Shovot	189,5	10,7	5,6	178,8	94,4
Yangiariq	144,9	7,3	5	137,6	95,0
Yangibozor	184,9	7,6	4,1	177,3	95,9

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**
2021- yil yanvar-sentabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 81,3 % yoki **2526,2** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

81,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **375,8** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 14,9 % ni tashkil etdi.

14,9 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1015,5** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 40,2 % ni tashkil etdi.

40,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1134,9** mlrd. so'mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 44,9 % ni tashkil etdi.

44,9 %




**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Xorazm viloyati	3108,2	132,4	2526,2
Urganch sh.	749,4	141,1	667,3
Xiva sh.	163,0	138,4	127,2
tumanlar:			
Bog'ot	200,7	148,6	134,5
Gurlan	174,4	132,5	155,8
Qo'shko'pir	207,4	140,8	133,4
Urganch	279,8	130,5	211,1
Hazorasp	166,0	187,7	125,9
Tuproqqal'a	105,8	144,2	83,2
Xonqa	239,0	107,2	192,6
Xiva	303,4	137,9	265,6
Shovot	189,5	121,3	171,1
Yangiariq	144,9	103,8	114,8
Yangibozor	184,9	108,3	143,7

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari**

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari**
2021- yil yanvar-sentabr oylarida

mlrd.s'om

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	3108,2	2311,8	513,4	283,0
Urganch sh.	749,4	505,7	195,3	48,4
Xiva sh.	163,0	105,2	43,4	14,4
tumanlar:				
Bog'ot	200,7	158,6	30,7	11,4
Gurlan	174,4	148,8	6,5	19,1
Qo'shko'pir	207,4	153,6	25,7	28,1
Urganch	279,8	187,4	58,6	33,8
Hazorasp	166,0	154,0	10,3	1,7
Tuproqqal'a	105,8	61,4	36,8	7,6
Xonqa	239,0	155,7	19,5	63,8
Xiva	303,4	247,0	47,6	8,8
Shovot	189,5	155,5	12,1	21,9
Yangiariq	144,9	134,6	9,9	0,4
Yangibozor	184,9	144,3	17,0	23,6

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Urganch sh.
749,4

Xiva
303,4

Urganch
279,8

Xiva sh.
163,0

Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch shahri (749,4 mlrd. so'm), Xiva (303,4 mlrd. so'm), Urganch (279,8 mlrd. so'm) tumani hamda Xiva shahriga (163,0 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (62)224-65-22